

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



SPORT TURLARI BO'YICHA MUSOBAQALAR O'TKAZISH VA
HAKAMLIK QILISH
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111200 – Jismoniy madaniyat

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar	
STBMOHQ1604	2026-2027	6	Haftadagi dars soatlari	4
Fan/modul turi	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish.	60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad- sport o'yinlari basketbol, gandbol, voleybol, sport turlari bo'yicha musobaqa o'tkazish va hakamlik qilishni o'rgatishni takomillashtirish, hujum va himoya texnikasi hamda taktikasini o'rgatishni takomillashtirish, o'yinlarda qo'llanadigan turli usullarni o'rgatishni takomillashtirish, finnlarni o'rgatishni takomillashtirish va tarbiyalash, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va barkamol avlodni tarbiyalashga mos bilim, ko'nikma va malakalariga oid sport mahoratini oshirish hamda takomillashtirishdan iboratdir. Fanning vazifasi – talabalarda sport turlari bo'yicha musobaqa otkazish va hakamlik qilish fanini o'tkazish bo'lajak mutaxassislarga sport o'yinlarining mashq elementlarini o'rgatishni takomillashtirish, sport o'yinlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish, talabalarga sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun atroficha bilim berish, futbol, voleybol, basketbol, gandbol o'yinlarida hakamlik qilishni o'rgatish va harakatlanish va to'pni boshqarish texnikasini o'rgatishni takomillashtirish hamda fan bo'yicha talabalarni sport turlarining o'yin va musobaqa qonun qoidalarini mustahkam o'rgatish orqali amalga oshirishdan iborat. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Basketbol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralari (jestlari). Basketbol o'yinining rasmiy qoidalarini va hakamlik ishoralarini o'rgatish. Basketbol maydoni, to'p va jihozlari (shit halqa) uning o'lchovlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. 2-mavzu. Voleybol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralari (jestlari). Voleybol o'yinining rasmiy qoidalarini va hakamlik ishoralarini o'rgatish. Voleybol maydoni, to'p va jihozlari (setka, antenna, ustun) uning o'lchovlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. 3-mavzu. Gandbol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralari (jestlari). Gandbol o'yinining rasmiy qoidalarini va hakamlik ishoralarini o'rgatish. Gandbol maydoni, to'p va jihozlari (darvoza, erkin to'p otish			

joyi) uning o'lchovlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish.	
4-mavzu. Futbol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralari (jestlari). Futbol o'yinining rasmiy qoidalarini va hakamlik ishoralarini o'rgatish. Futbol maydoni, to'p va jihozlari (darvoza, burchak sektori, jarima maydoni) uning o'lchovlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. 5-mavzu. Musobaqalarda me'yoriy-hujjatlarni rasmiylashtirish. Musobaqalarda me'yoriy-hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, musobaqa qaynomasini to'ldirish va musobaqa nizomini tuzishni o'rgatish. Basketbol, voleybol, gandbol, futbol va yengil atletika sport turlarida musobaqa bayonnomalarini to'ldirish haqida nazariy ma'lumotlarga ega qilish. III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Basketbol o'yinida to'pni to'g'ri olib yurish va to'g'ri uzatish texnikasi orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. 2. Basketbol o'yinida jarima to'pini to'g'ri otish texnikasi orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. O'rgatilgan texnik usullarni ikki tomonlama basketbol o'yini orqali mustahkamlash 3. Ikki tomonlama basketbol o'yini orqali basketbol o'yini qoidalarini o'rgatish. 4. Ikki tomonlama basketbol o'yini orqali hakamlik qilish usullarini o'rgatish. 5. Ikki tomonlama basketbol o'yini orqali hakamlik qilish ishoralarini o'rgatish. 6. Voleybol o'yinida to'pni to'g'ri o'yinga kiritish va to'g'ri uzatish texnikasi orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. 7. Voleybol o'yinida hujumkor zarbani to'g'ri berish texnikasi orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. O'rgatilgan texnik usullarni ikki tomonlama voleybol o'yini orqali mustahkamlash. 8. Ikki tomonlama voleybol o'yini orqali voleybol o'yini qoidalarini o'rgatish. 9. Ikki tomonlama voleybol o'yini orqali hakamlik qilish usullarini o'rgatish. 10. Ikki tomonlama voleybol o'yini orqali hakamlik qilish ishoralarini o'rgatish. 11. Gandbol o'yinida to'pni to'g'ri olib yurish va to'g'ri uzatish texnikasi orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. 12. Gandbol o'yinida jarima to'pini to'g'ri otish texnikasi orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. O'rgatilgan texnik usullarni ikki tomonlama gandbol o'yini orqali mustahkamlash 13. Ikki tomonlama gandbol o'yini orqali gandbol o'yini qoidalarini o'rgatish. 14. Ikki tomonlama gandbol o'yini orqali hakamlik qilish usullarini o'rgatish. 15. Ikki tomonlama gandbol o'yini orqali hakamlik qilish ishoralarini o'rgatish.	

	o'rgatish. 16. Futbol o'yinida to'pni to'g'ri o'yinga kiritish, erkin to'p tepishni to'g'ri bajarish orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. 17. Futbol o'yinida jarima to'pini to'g'ri tepish texnikasi orqali o'yin qoidalarini o'rgatish. O'rgatilgan texnik usullarni ikki tomonlama futbol o'yini orqali mustahkamlash 18. Ikki tomonlama futbol o'yini orqali futbol o'yini qoidalarini o'rgatish. 19. Ikki tomonlama futbol o'yini orqali hakamlik qilish usullarini o'rgatish. 20. Ikki tomonlama futbol o'yini orqali hakamlik qilish ishoralarini o'rgatish. IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. Basketbol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralarini (jestlari). 2. Voleybol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralarini (jestlari). 3. Gandbol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralarini (jestlari). 4. Futbol o'yini qoidalarini va hakamlik ishoralarini (jestlari). 5. Musobaqalarda me'yoriy-hujjatlarni rasmiylashtirish. V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Sport bo'yicha musobaqalar o'tkazish va hakamlik qilish. 2. Basketbol o'yinda hakamlik qilish va o'yin natijasini tahlil qilish. 3. Basketbol hakamlarning vazifalari va musobaqalar o'tkazish nizomini tuzish. 4. Basketbol musobaqalariga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi va musobaqalarga tayyorlash. 5. Voleybol o'yin qoidalarini kelib chiqishi, dastlabki va hozirgi qoidalarini. 6. Voleybol bo'yicha hakamlik qilish qoidalarini va hakamlarning vazifalari. 7. Voleybol musobaqalari nizomini tuzish va musobaqaga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini o'rgatish.
--	---

	8. Voleybol musobaqalariga tayyorlash. 9. Futbol o'yin qoidalarini kelib chiqishi, dastlabki va hozirgi qoidalarini. 10. Futbol musobaqalarini o'tkazish nizomini tuzish, musobaqalarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi. 11. Gandbol o'yin qoidalarini kelib chiqishi, dastlabki va hozirgi qoidalarini. 12. Gandbolda hakamlarning vazifalari va musobaqalar o'tkazish nizomini tuzish. 13. Gandbol musobaqalarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, musobaqalarga tayyorlash. 14. Basketbol sport turini maydon o'lchamlari va jihozlari. 15. Futbol sport turini maydon o'lchamlari va jihozlari. 16. Gandbol sport turini maydon o'lchamlari va jihozlari. 17. Voleybol sport turini maydon o'lchamlari va jihozlari. 18. Basketbolda hakamlarning imo-ishoralarini o'rganish. 19. Futbolda hakamlarning imo-ishoralarini o'rganish. 20. Voleybolda hakamlarning imo-ishoralarini o'rganish. 21. Gandbolda hakamlarning imo-ishoralarini o'rganish. 3. VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sportning o'rni va ahamiyatini bilishi; yengil atletika va sport o'yinlari (basketbol, voleybol, gandbol, futbol)ni o'yin qoidalarini hamda hakamlarni imo-ishoralarini o'rganishni takomillashtirish; sport o'yinlari (basketbol, voleybol, gandbol, futbol) da musobaqalar tashkil qilish va unda hakamlikni o'rganishni takomillashtirish <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i> - yengil atletikada hakamlarning vazifalari, musobaqalar o'tkazish nizomini tuzish, sport turlarida hakamlar imo-ishoralarini amaliyotda qo'llash, musobaqalarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi, musobaqalarda hakamlik qilishga o'rgatish, yengil atletika turlarida musobaqa bayonnomalarini to'ldirish; - sport turlari futbol, basketbol, voleybol va gandbol o'yin qoidalarini kelib chiqishi, dastlabki qoidalar, jahon miqyosidagi musobaqalarni o'tkazilishi, Olimpiada o'yinlarini o'tkazilishi, hakamlik qilish qoidalarini, hakamlarning vazifalari, musobaqalar o'tkazish nizomini tuzish, musobaqalarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi hamda musobaqalarga tayyorlash <i>haqida bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).</i> - sport turlari futbol, basketbol, voleybol va gandbol o'yin qoidalarini kelib chiqishi, dastlabki qoidalar, jahon miqyosidagi musobaqalarni o'tkazilishi, Olimpiada o'yinlarini o'tkazilishi, hakamlik qilish qoidalarini, hakamlarning vazifalari, musobaqalar o'tkazish nizomini tuzish, musobaqalarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi hamda musobaqalarga tayyorlash <i>haqida malakalarga ega bo'lishi kerak.</i> 4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari
--	---

	ma'ruza; keys-stadi; individual loyihalar; taqdimotlar qilish; guruhlarda ishlash; jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish; "BBB", "Tarozi", "SWOT-tahlil", "Sinkveyn", "FSMU", o'yin, musobaqa, qat'iy tartiblashgan mashqlar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirishi zarur.
6.	IX. Asosiy adabiyotlar: 1. J.M. Shukurlayev. «Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi»(Voleybol) o'quv qo'llanma "YANGI CHIRCHIQ BOOK" nashriyoti Toshkent 2022 y. 2. J.M. Shukurlayev. «Sport mahoratini oshirish»(Voleybol) darslik "YANGI CHIRCHIQ BOOK" nashriyoti Toshkent 2023 y 3. Xabibullayev S.X. Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi (Candbol). O'quv qo'llanma. "Nazokathon ziyo print" nashriyoti. Toshkent, 2023. 4. Xabibullayev S.X. Futbol va uni o'qitish metodikasi. Darslik. "Zebo print" nashriyoti. Toshkent, 2024. 5. M.N. Shermatov. «Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi»(Futbol) o'quv qo'llanma "YANGI CHIRCHIQ BOOK" nashriyoti Toshkent 2022 y. 6. R.S. Mamatqulov. «Sport va harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi»(Basketbol) o'quv qo'llanma "YANGI CHIRCHIQ BOOK" nashriyoti Toshkent 2022 y. X. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Иноземцева Л.А. Легкая атлетика и методика преподавания: Методическое пособие Ташкент: 2001 г. 2. Хўжаев Ф, Раҳимқулов К.Д, Нигманов Б.Б "Спорт ва ҳаракатли ўйинлар ва ўқитиш методикаси" (ҳаракатли ўйинлар) Ўқув қўлланма. Тошкент 2008 йил 3. Active schools. Kori ki te Kura. Games sport New Zealand 2012 year. 4. B.Nig'matov, F.Xo'jayev, K.Rahimqulov. "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi"(3-nashr) o'quv qo'llanma "Toshkent "ILIM ZIYO" 2013. 5. T.S. Usmanxodjayev, Sh.X. Isroilov, A.A. Pulatov, Sh.A. Pulatov "Milliy va harakatli o'yinlar" Darslik T.: "Iqtisod-Moliya", 2015. 268 bet.

	XI. Axborot manbalari: 1. www.cspi.uz 2. www.pedagog.uz 3. www.gov.uz 4. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) 5. http://ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil " " dagi __ sonli qarori bilan tasdiqlangan
7.	
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: S.X.Xabibullayev - ChDPU "Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası katta o'qituvchisi. J.M.Shukurllayev -ChDPU "Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası v/b dotsent, p.f.f.d. (PhD) M.N.Shermatov -ChDPU "Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası v/b dotsent, p.f.f.d. (PhD) S.K.Toshpulatov - Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrası o'qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: S.S.Quvondiqov - TDPU "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrası p.f.f.d. (PhD), professor. V.Sh.Karayev - CHDPU Jismoniy madaniyat fakulteti dekan muovini, p.f.f.d. (PhD), v/b dotsent